

ARAB GRAFIKASIDAGI “TARIXI KOSHG‘AR” ASARINING O‘RGANILISHI VA UNING QO‘LYOZMA NUSXALARI

Mirzatillayeva Nargizaxon

Farg‘ona davlat universiteti

filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21126190>

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Tarixi Koshg‘ar” asarining o‘rganilish tarixi, ilmiy muomalaga kirishi hamda uning mavjud qo‘lyozma nusxalari (C 576, B 2472, C 577) tahlil qilinadi. Asarning matnshunoslik va manbashunoslik jihatlarini, qo‘lyozmalarining fizik tavsifi, ko‘chirilgan davri va hududi haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Shuningdek, tadqiqotchilar – V.V. Bartold, T.D. Jumanaliyev, O.F. Akimushkin, V.P. Yudin va boshqalarning asarga oid ilmiy qarashlari yoritilib, uning boshqa tarixiy manbalar, xususan, Shoh Mahmud Churasning “Xronika” asari bilan aloqadorligi masalasi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijasida “Tarixi Koshg‘ar” asarining Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlar tarixini o‘rganishda muhim manba ekani hamda qo‘lyozma nusxalarining matn tarixini tiklashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Tarixi Koshg‘ar, qo‘lyozma, matnshunoslik, manbashunoslik, tarixiy manba, nusxa.

Abstract: This article analyzes the history of the study of the work “Tarikh-i Kashgar,” its introduction into scholarly circulation, and its extant manuscript copies (C 576, B 2472, C 577). Detailed information is provided on the textological and source-critical aspects of the work, as well as the physical description of the manuscripts, their period, and place of copying. In addition, the scholarly views of researchers such as V.V. Bartold, T.D. Jumanaliev, O.F. Akimushkin, V.P. Yudin, and others are examined, and the relationship of the work with other historical sources, in particular with Shoh Mahmud Churas’s “Chronicle,” is discussed. The study substantiates that “Tarikh-i Kashgar” is an important source for the study of the history of Eastern Turkestan and adjacent regions, and highlights the significance of its manuscript copies in reconstructing the textual history.

Keywords: Tarikh-i Kashgar, manuscript, textology, source studies, historical source, copy.

Mazkur tarixiy asar Koshg‘ar va Farg‘ona vodiysi haqida qimmatli ma‘lumotlar berishi bilan ahamiyatidir. Bizgacha uning uchta nusxasi saqlanib qolgan. Ushbu asar va uning nusxalari haqidagi nisbatan to‘liqroq ma‘lumot T.D.Jumanaliyevning monografik tadqiqotida keltiriladi: “C 576 raqamli nusxa to‘liq bo‘lib, ko‘chirilgan vaqti XVIII asrga to‘g‘ri keladi, ko‘chirilgan joyi – Sharqiy Turkiston. Ushbu nusxa 1902-yilda V.V.Bartold tomonidan Toshkent shahrida sotib olingan va keyinchalik Osiyo muzeyiga topshirilgan.

B 2472 raqamli nusxa ham to‘liq bo‘lib, uning matni C 576 nusxasi matniga aynan o‘xshashdir. Ko‘chirilgan vaqti – XIX asr, ko‘chirilgan joyi – Sharqiy Turkiston.

C 577 raqamli nusxa esa nuqsonli bo‘lib, uning boshlanish qismi yo‘q va ko‘plab matn tushib qolgan joylar mavjud. Ushbu nusxa matni ham C 576 qo‘lyozmasi matniga o‘xshashdir. Ko‘chirilgan vaqti – XVIII asr, joyi – Sharqiy Turkiston” [5].

T.D.Jumanaliyevning izohlariga tayangan holda ta‘kidlash mumkinki, C 576, B 2472 va C 577 raqamli nusxalar asarning matn tarixini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi. Avvalo, C 576 nusxasining XVIII asrda Sharqiy Turkistonda ko‘chirilganligi va uning to‘liq holda ekanligi mazkur qo‘lyozmani tayanch matn sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, ushbu nusxaning 1902-yilda V.V.Bartold tomonidan Toshkentda topilib, Osiyo muzeyiga topshirilgani uning ilmiy

muomalaga kirish jarayonini ko'rsatuvchi muhim fakt hisoblanadi. Ushbu nusxa V.V. Bartold tomonidan general-mayor Jo'rabek kolleksiyasida aniqlangan. Tarixiy manbalar general-mayor Jo'rabek saroyida sharq qo'lyozma asarlaridan iborat noyob kutubxona mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi [11]. Bu haqda V.V. Bartold o'zining esdaliklarida quyidagicha izoh beradi: *“Baxtli tasodif tufayli menga Toshkentda Osiyo muzeyi uchun hozirgacha mutlaqo noma'lum bo'lgan, nomi va muallifi ko'rsatilmagan, Qashg'ar tarixi haqidagi yana bir asarning qo'lyozmasini sotib olish nasib etdi”* [4:73].

B 2472 nusxasining XIX asrda ko'chirilganligi va matn jihatidan C 576 bilan aynan mos kelishi qo'lyozma an'anasi barqaror bo'lganini ko'rsatadi. Bu holat matnning ko'chirilish jarayonida sezilarli o'zgarishlarga uchramaganligini anglatadi.

C 577 nusxasining nuqsonli ekani, boshlanish qismining yo'qligi va matnlar tushib qolgan ko'plab o'rinlarning mavjudligi matnning ayrim qismlarini tiklash masalasini murakkablashtiradi. Biroq uning matni ham C 576 ga o'xshash ekani qo'lyozma nusxalar umumiy manbadan kelib chiqqanini ko'rsatadi. XVIII asrga oidligi sababli, u matnning qadimiy qatlamini aniqlashda qo'shimcha dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, uchala nusxa ham Sharqiy Turkistonda ko'chirilganligi asarning mintaqaviy tarixiy muhitda keng tarqalganini tasdiqlaydi. Bu esa asarning mahalliy tarixiy an'ana doirasida muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Matnshunoslik va tekstologik tadqiqotlar jarayonida C 576 nusxasini asosiy matn sifatida qabul qilib, B 2472 va C 577 nusxalarini qiyosiy variant sifatida jalb etish maqsadga muvofiqdir.

V.P. Yudin'ning ma'lumotlariga ko'ra “Tarixi Koshg'ar” asaridan o'z tadqiqotlarida V.V. Bartold, M. Hartmann, L.I. Duman, K.A. Usmanov, S.K. Ibragimov, K.I. Petrov hamda boshqa ayrim tadqiqotchilar foydalanganlar [10].

Tadqiqotchilarning “Tarixi Koshg'ar” asariga qayta murojaat qilishi 1960-yillar boshlariga to'g'ri keladi. Bu borada birinchilardan bo'lib XVI-XVIII asrlardagi qirg'izlarning etnik va siyosiy tarixi bo'yicha tadqiqot olib borgan K.I. Petrovning ishini qayd etish lozim [7:172]. U “Tarixi Koshg'ar” asarining anonim muallifi keltirgan ma'lumotlaridan o'zining tadqiqotida keng foydalanadi. Havolalar “Tarixi Koshg'ar” asarining Рукопись ЛО ИВ АН С 576 inventar raqamli nusxasidan foydalanganini ko'rsatadi. [7: 50, 61, 62, 63, 102, 124, 125, 128.]

Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotdan 15 yil o'tib, O.F. Akimushkin Shoh Mahmud Churasning “Xronika” asariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarni e'lon qiladi [2: 365, 9: 496]. Ushbu tadqiqotlarda “Tarixi Koshg'ar” asari “Xronika” bilan qiyosiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. O.F. Akimushkin ikkala asar matnini qiyosiy o'rganish asosida quyidagi xulosalarga keladi:

1. “Tarixi Koshg'ar” asarining anonim muallifi Shoh Mahmud Churas “Xronika”sining qisqartirilgan tarjimasini amalga oshirgan va uni o'z asariga kiritgan. Bunda muallif ayrim rivoyatlarni sezilarli darajada qisqartirgan, ba'zilarini umuman tushirib qoldirgan, ayrim ma'lumotlarni qayta hikoya shaklida bayon qilgan, asosan Churas asarining umumiy kompozitsion tuzilishini saqlagan (boblarni tartibi deyarli mos keladi). Bu holat “Tarixi Koshg'ar” asarining kompozitsion jihatdan “Xronika” asariga yaqinligini ko'rsatadi.
2. Manbalar o'rtasida joy nomlari, sanalar, shaxs ismlari, qo'shin soni, amirlarning tayinlanishi, hukmdorlar hukmronlik muddati kabi tafsilotlarga taalluqli tafovutlar ham mavjuddir. Biroq bu farqlar prinsipial xarakterga ega emas. Ya'ni ular tarixiy voqealarni mutlaqo boshqacha talqin qilish imkonini bermaydi. Olim bu tafovutlarni quyidagi omillar bilan izohlaydi: Anonim muallif qo'shimcha yozma manbadan foydalangan bo'lishi mumkin; og'zaki ma'lumotlarga tayangan bo'lishi mumkin; yoki muallifning shaxsiy qarashlari aks etgan bo'lishi mumkin.

3. Garchi "Tarixi Koshg'ar" asari "Xronika" asariga bog'liq bo'lsa-da, u mustaqil tarixiy manbadir. Ayniqsa, XVII asr ikkinchi yarmidagi Turfon va Chalish siyosiy tarixiga oid ayrim ma'lumotlar, Boboxon hukmronligi sanalari haqidagi aniqliklar Sharqiy Turkiston tarixini kengroq va chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

O.F.Akimushkin "Tarix-i Koshg'ar" asarini Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlar tarixini o'rganishda muhim manba sifatida e'tirof etadi. U o'zining boshqa tadqiqotlarida (Mog'uliston tashqi siyosati, hukmdorlar xronologiyasi va boshqalar) ham "Tarixi Koshg'ar" ma'lumotlaridan keng foydalangan.

Yana bir sharqshunos olim A.M. Muginovning uyg'urlar yashaydigan hududlarda yaratilgan asarlar ro'yxatida ham mazkur asar qisqa sharh bilan o'rin oladi [6: 209]. A.Z. Validov tomonidan ilgari surilgan "Tarixi Koshg'ar" asarining Shoh Mahmud Churasning "Xronika" asariga bog'liqligi [3:89] haqidagi ilmiy taxminni A.M.Muginov ham qo'llab-quvvatlaydi hamda "Tarixi Koshg'ar" asari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: *Yozilgan sana, ko'chirilgan sana va joy noma'lum. Manba sifatida Tarixi Rashidiy, Ravzat us-safo va Tarixi Xorazmiy (486-varaq) asarlaridan foydalanilgan. Shuningdek, muallif bundan tashqari Tarixi Shah Mahmud ibn Mirza Fazil asaridan ham foydalangani shubhasizdir, chunki matnning ayrim o'rinlari mazkur asarning qayta bayoni hisoblanadi, ba'zi hollarda esa sarlavhalarining joylashish tartibi ham aynan mos keladi. Buni yana shundan ham bilish mumkinki, ushbu asardan 646-varaqda bir she'r tarjimasiz holda to'liq ko'chirib olingan (Tarixi Shah Mahmud, 47a-varaq, foto). Bu she'rni Abdur-Rashid o'z o'g'li Abdulkarimga bag'ishlagan bo'lib, muallifning so'zlariga ko'ra, Abdulkarim uni tumor (medalyon) sifatida osib qo'ygan* [6: 45].

"Tarixi Koshg'ar" asarini o'rganishda V.P. Yudin hissi sezilarli bo'ldi [10: 652]. U ushbu yodgorlik haqida tadqiqot e'lon qilib, u bilan bog'liq qator manbashunoslik masalalarini batafsil o'rganadi. Jumladan, u A.Muginovning "Tarixi Koshg'ar" asari muallifi Shoh Mahmud Churasning "Xronika" asaridan ko'plab joylarni to'liq ko'chirgan, degan fikriga qo'shilmadi. Bu borada V.P.Yudin fors-turkiy adabiyotda o'xshash vaziyatlarni tasvirlashda muayyan baytni qo'llash odatiy hodisa bo'lganini, shuning uchun uning matnga kiritilishi "Tarixi Koshg'ar" asarida aynan "Tarixi shoh Mahmud" asaridan foydalanilganining mutlaq isboti bo'la olmasligini ta'kidladi [10: 401]. Shuningdek, V.P. Yudin "Tarixi Koshg'ar" asarining Shoh Mahmud Churasning "Xronika" asariga bog'liqligini tasdiqlovchi yana bir dalilni muhokama qiladi. Anonim asarda Ahun Xoja Muhammad Imin Yosi muallifning shaxsiy ma'lumot beruvchisi sifatida tilga olinadi va go'yoki Muhammad Imin Yosi otasining so'zlariga asoslanib, muallifni mo'g'ul xoni Shoh Shuja ad-Din Ahmad haqida ma'lumotlar bilan ta'minlagani qayd etiladi. Shu munosabat bilan V.P. Yudin "Tarixi Koshg'ar" muallifi Muhammad Imin Yosining ma'lumotlaridan foydalana olmagan, chunki u 1670-yillarga kelib allaqachon yetuk yoshda bo'lgan, "Tarixi Koshg'ar" esa XVIII asrning ikkinchi choragidan oldin yozilmagan, demak, unga shaxsiy ma'lumot beruvchi sifatida havola boshqa bir asardan ko'chirilgan bo'lishi mumkin", [10: 401] degan xulosaga keladi.

R.A. Abdumanapovning tadqiqotida ham XV-XVIII asrlar davridagi qozoq-qirg'iz o'zaro munosabatlarini o'rganish hamda mintaqaviy siyosiy va etnik jarayonlarni yoritishda oz sonli yozma manbalar ichida "Tarix-i Koshg'ar" asari ham muhim tarixiy manba sifatida e'tirof etiladi [1: 85-101]. R.A.Abdumanapov o'zining ayrim qarashlarini "Tarixi Koshg'ar" asarining 1973-yilda Moskvada chop etilgan to'plam tarkibidagi nashriga tayangan holda asoslaydi [8: 217-223]. Mazkur yondashuv muallifning manbashunos va matnshunoslik tamoyillariga amal qilganini, ya'ni o'z tadqiqotida nashr qilingan ilmiy matn va izohlar asosida xulosa chiqarganini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Tarixi Koshg‘ar” asari Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlar tarixini o‘rganishda muhim va ishonchli manba hisoblanadi. Mavjud qo‘lyozma nusxalarning (C 576, B 2472, C 577) qiyosiy tahlili ularning yagona matn an‘anasiga mansubligini hamda matnning nisbatan barqaror saqlanganini tasdiqlaydi. C 576 nusxasining to‘liqligi va qadimiyligi uni tayanch matn sifatida qabul qilish zarurligini asoslaydi.

Manbashunoslik jihatidan asarning Shoh Mahmud Churas “Xronika”si bilan bog‘liqligi aniqlangan bo‘lsa-da, undagi mustaqil tarixiy ma‘lumotlar uning alohida manba sifatidagi ilmiy qiymatini belgilaydi. Shu bilan birga, asarning lingvistik xususiyatlari – tarixiy turkiy til unsurlarining saqlanishi, fors-tojik leksik qatlamining faol qo‘llanishi hamda rivoyaviy-bayon uslubining ustunligi – uning yaratilish davri va muhitini aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, “Tarixi Koshg‘ar” qo‘lyozmalari nafaqat matn tarixini tiklash, balki tarixiy-lisoniy jarayonlarni yoritishda ham muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Абдуманов Р.А. Кыргыз и казахское ханство В XV-XVIII веках. // Ош мамлекеттик университетинин жарчысы. – №4/2025, 85-101.
2. Акимовский О.Ф. Введение в изучение памятников //Шах Махмуд Чурас. «Хроника» /Крит, текст, перевод, комментарии, исследование и указатели. – М., 1976.
3. Аюпов Т.М. О значении Ферганской экспедиции Ахмет-Заки Валидова для российской ориенталистики. // Известия АлтГУ. Исторические науки и археология. – 2018. №2 (100) – С. 87-91.
4. Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан // Сочинения. Т.VIII. – М., 1973. – С.73.
5. Джуманалиев Т.Д. История изучения "Тарих-и Кашгар" и его место в восточнотуркестанской историографии. https://history.krsu.edu.kg/index.php?option=com_content&view=article&id=203%3A---q--q-----&catid=24&Itemid=56&limitstart=1.
6. Мугинов А.М. Описание уйгурских рукописей Института народов Азии. – М.: Восточной литературы, 1962. – 209 с.
7. Петров К.И. Очерки феодальных отношений у кыргызов в XV-XVIII веках. – Фрунзе, Изд-во АН Киргизской ССР, 1961. – 172 с.
8. Тарих-и Кашгар. Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып. 1. Ред: В.А. Ромодин. – Москва: Наука, 1973. – С.217-223.
9. Хроника / Критический текст, перевод, комментарии, исследование и указатели О. Ф. Акимовской. – 2-е изд. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2010. – 496 с.
10. Юдин В. П. и другие. Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков. (Извлечения из персидских и тюркских сочинений). – Алма-Ата: Наука, 1969. – 652 с.